

INGLIZ TILIDAGI ILOVA KONSTRUKSIYALARIDA SINTAKTIK ALOQALARNING IFODALANISH USULLARI

To'lakova Dilbar,

SamDChTI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda ilovali birliklarning asosiy komponent bilan grammatik, semantik, kommunikativ hamda intonatsion jihatdan bog'lanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, appozitiv munosabat, grammatik moslik, punktuatsion vositalar va semantik yaqinlik asosida yuzaga keluvchi sintaktik aloqalarning strukturaviy hamda funksional xususiyatlari misollar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarining matnning kommunikativ yaxlitligini ta'minlash, axborotni aniqlashtirish va nutqning ekspressiv-ta'sirchanligini kuchaytirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ilova konstruksiyasi, sintaktik aloqa, appozitsiya, sintaktik birlik, kommunikativ funksiya, semantik munosabat, punktuatsiya, ingliz tili sintaksisi.

Аннотация. В данной статье анализируются способы выражения синтаксических связей в присоединительных конструкциях английского языка. В исследовании освещаются особенности грамматической, семантической, коммуникативной и интонационной связи присоединительных элементов с основным компонентом. Также на основе примеров рассматриваются структурные и функциональные особенности синтаксических связей, возникающих посредством аппозитивных отношений, грамматического согласования, пунктуационных средств и семантической близости. В результате исследования обоснована роль присоединительных конструкций в обеспечении коммуникативной целостности текста, конкретизации информации и усилении экспрессивности речи.

Ключевые слова: присоединительная конструкция, синтаксическая связь, аппозиция, синтаксическая единица, коммуникативная функция, семантические отношения, пунктуация, синтаксис английского языка.

Abstract. This article analyzes the ways of expressing syntactic relations in English appositive constructions. The study highlights the grammatical, semantic, communicative, and intonational connections between appositive units and the main component. In addition, the structural and functional features of syntactic relations expressed through appositive relations, grammatical agreement, punctuation markers, and semantic similarity are examined on the basis of examples. The results of the research demonstrate the role of appositive constructions in ensuring the communicative integrity of the text, specifying information, and increasing the expressiveness of speech.

Keywords: appositive construction, syntactic relation, apposition, syntactic unit, communicative function, semantic relation, punctuation, English syntax.

Kirish. Ma'lumki, tilshunoslikda ilova konstruksiyalarining strukturaviy, semantik, uslubiy hamda kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, ilova konstruksiyalar tarkibidagi sintaktik birliklarning o'zaro munosabati, ularning gap tarkibida tutgan o'rni va sintaktik aloqalarning namoyon bo'lish shakllari masalasi zamonaviy sintaksisning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarining strukturaviy tabiati turlicha talqin qilinishi natijasida ayrim sintaktik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada yoritilmay qolmoqda. Xususan, ilovali birliklar orasidagi grammatik va mazmuniy bog'lanishlarning tabiati, ularning gapning umumiy sintaktik

tizimidagi funksional vazifasi hamda sintaktik aloqa vositalarining ifodalanish shakllari ko'pincha umumiy tarzda tahlil qilinadi.

Bizningcha, bunday holatning yuzaga kelishiga bir necha omillar sabab bo'ladi. Birinchidan, ko'pgina tadqiqotlarda ilova konstruksiyalarining barcha strukturaviy ko'rinishlari bir tadqiqot doirasida umumlashtirib o'rganiladi, bu esa ayrim sintaktik hodisalarning chuqur tahlil qilinishiga to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, ilova konstruksiyalarini tadqiq etishda sintaktik birliklar va sintaktik aloqalarning funksional-pragmatik jihatlari yetarlicha hisobga olinmaydi. Uchinchidan esa, ushbu hodisani turli tilshunoslik maktablari nuqtayi nazaridan qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan ilmiy manbalardan to'liq foydalanilmasligi masalaning ayrim jihatlari ochilmay qolishiga olib keladi. Shuning uchun ilova konstruksiyalarida sintaktik birliklarning tuzilishi, ularning o'zaro grammatik munosabati hamda sintaktik aloqalarning ifodalanish usullarini kompleks ravishda tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilova konstruksiyalarining yana bir muhim va yetarlicha tadqiq qilinmagan jihatlaridan biri ularning rematik funksiyada qo'llanishidir. Ilovali elementlarning rema vazifasida kelishi gapning aktual bo'linishi nazariyasi bilan ilova hodisasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Chunki ilova konstruksiyalari orqali gap tarkibidagi yangi, muhim yoki ta'kidlanayotgan axborot ajratib ko'rsatiladi hamda kommunikativ markaz kuchaytiriladi. Shu jihatdan qaralganda, ilova konstruksiyalar nafaqat sintaktik birlik sifatida, balki matnning kommunikativ tuzilishini shakllantiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bunday holat ilova konstruksiyalarining murakkab sintaktik butunlik nazariyasi bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Zero, ilovalik birliklar matn tarkibidagi mazmuniy yaxlitlikni ta'minlash, sintaktik qismlar o'rtasidagi semantik va grammatik munosabatlarni mustahkamlash hamda nutqning ekspressiv-ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ilova konstruksiyalari, gapning aktual bo'linishi hamda murakkab sintaktik butunlik hodisalari yagona sintaktik, stilistik va kommunikativ tizim doirasida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, ilova konstruksiyalar tarkibidagi sintaktik birliklar va ular o'rtasidagi aloqalarning o'ziga xosligi nutqning mazmuniy aniqligi, mantiqiy izchilligi hamda uslubiy ta'sirchanligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ilovalik birliklarning gapning asosiy komponentlari bilan grammatik va intonatsion jihatdan bog'lanishi sintaktik aloqalarning murakkab va ko'p qatlamli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli ilova konstruksiyalarida sintaktik birliklar va sintaktik aloqalarning funksional hamda kommunikativ imkoniyatlarini chuqur o'rganish zamonaviy sintaksis uchun dolzarb ilmiy masalalardan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilova konstruksiyalarida sintaktik birliklar va sintaktik aloqalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalasi turli tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida B.T. Tursunov ilovani sintaktik

bogʻlanishning alohida turi sifatida baholab, uning grammatik va kommunikativ xususiyatlarini yoritgan boʻlsa, M.B. Begmatov toʻldiruvchi bilan ifodalangan ilovali elementlarning funksional-semantik xususiyatlarini tadqiq qilgan. B.M. Axmedova badiiy matndagi ilova hodisasining sintaktik va uslubiy jihatlariga eʼtibor qaratgan, I.U. Mamasoliyev esa ilova konstruksiyalarining stilistik-pragmatik funksiyalarini tahlil qilgan. Ingliz tilshunosligida esa E. Bowman, A.A. Hill, Ch. F. Hockett va H. Whitehall tomonidan sintaktik strukturalar, fragmentar gaplar hamda nutqdagi sintaktik birliklarning funksional xususiyatlari oʻrganilgan boʻlsa, J. Bruner va J. Lucariello sintaktik birliklarning kommunikativ-pragmatik vazifalariga alohida eʼtibor qaratganlar. Shuningdek, M.T. Gaibova ingliz tili materiallari asosida qoʻshimcha konstruksiyalar va ularning stilistik funksiyalarini tadqiq qilgan. Mazkur ishlarda ilova konstruksiyalarining ayrim strukturaviy, funksional va pragmatik jihatlari yoritilgan boʻlsa-da, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari maxsus va kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada oʻrganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarni oʻrganishda tavsifiy, strukturaviy va funksional-semantik metodlardan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar ilovali birliklarning grammatik va semantik bogʻlanish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy-tahliliy metod orqali ingliz tilidagi ilova konstruksiyalari oʻzbek tilidagi oʻxshash sintaktik hodisalar bilan solishtirildi. Bu esa ularning umumiy va farqli jihatlarini yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz adabiy asarlaridan olingan misollar tanlab olindi va ular asosida ilova konstruksiyalarining sintaktik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari turli strukturaviy vositalar orqali namoyon boʻladi. Tadqiq etilgan ingliz tili materiallari shuni koʻrsatadiki, ilovali elementlar nutqda keng qoʻllanib, ular asosiy komponent bilan grammatik, semantik va intonatsion jihatdan uzviy bogʻlanadi. Ayniqsa, ilovali birliklar va asosiy komponent oʻrtasidagi sintaktik aloqa koʻpincha izohlash, aniqlashtirish, konkretlashtirish hamda qoʻshimcha maʼlumot berish vazifalari orqali ifodalanadi. Ch. F. Hockett ingliz tilidagi strukturaviy sintaktik munosabatlarning funksional tabiati haqida fikr yuritar ekan, gap tarkibidagi birliklarning oʻzaro bogʻlanishi kommunikativ vazifa bilan chambarchas aloqador ekanligini taʼkidlaydi.[4.648] H. Whitehall esa ingliz tilidagi sintaktik modellarning strukturaviy xususiyatlarini tahlil qilib, appozitiv birliklarning gap mazmunini aniqlashtirishdagi rolga alohida eʼtibor qaratadi.[6.154]

Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalar bir necha usullar orqali ifodalanadi: 1) olmosh va ot shaklidagi birliklar oʻrtasidagi aloqa; 2) ot va ot shaklidagi birliklarning appozitiv munosabati; 3) intonatsiya va pauza orqali yuzaga keladigan

sintaktik bog‘lanish; 4) bog‘lovchilar yordamida ifodalangan aloqa; 5) kengaygan ilovali birliklar orqali yuzaga keluvchi sintaktik munosabatlar. Mazkur vositalar ilovali elementlarning gap tarkibida mustaqil mazmuniy yuk tashishini ta‘minlaydi.

Xususan, olmosh va ot shaklidagi birliklar o‘rtasidagi appozitiv aloqa ingliz tilida eng faol sintaktik vositalardan biri hisoblanadi:

1. *Maybe I’ll call him. Tony.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 119 p.).

2. *Now he has a valuable thing., A pearl.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 60 p.).

3. *We couldn’t forget them. Those girls.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 54 p.).

4. *She saw them. Brothers going up the steps.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 19 p.).

Mazkur misollarda ilovali birliklar asosiy komponent bilan appozitiv sintaktik aloqa asosida bog‘langan. Birinchi misolda *him* olmoshi bilan *Tony* oti o‘rtasidagi aloqa izohlovchi appozitsiya orqali ifodalangan. Bu yerda sintaktik aloqa grammatik moslashuvdan ko‘ra semantik aniqlashtirish vazifasi orqali yuzaga keladi. Ilovali birlik asosiy komponentning ma‘nosini konkretlashtirib, referentni aniq ko‘rsatadi.

Ikkinchi misolda *a valuable thing* va *a pearl* birliklari o‘rtasidagi aloqa izohlovchi appozitiv munosabat orqali ifodalanib, ilovali element umumiy ma‘noni toraytirish va aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Bu yerda sintaktik aloqa punktuatsion vosita – vergul hamda intonatsion pauza yordamida shakllangan.

Uchinchi va to‘rtinchi misollarda ham ilovali birliklar asosiy komponent bilan mazmuniy izohlash munosabatiga kirishadi. *Those girls* birikmasi *them* olmoshining ma‘nosini ochib bersa, *brothers going up the steps* birikmasi *them* komponentining kim ekanligini aniqlashtiradi. Bunday hollarda sintaktik aloqa kesimning umumiyliigi, intonatsion yaxlitlik va semantik yaqinlik orqali yuzaga chiqadi. E. Bowman og‘zaki nutqdagi fragmentar sintaktik birliklarni tahlil qilar ekan, bunday konstruksiyalarda intonatsiya va pauzaning sintaktik munosabatlarni shakllantirishdagi rolini alohida ta‘kidlaydi.[1.66–67]

Shuningdek, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida punktuatsion vositalar ham muhim rol o‘ynaydi. Vergul, tire yoki pauza ilovali birlikning asosiy komponentdan qisman ajralgan holda qo‘shimcha axborot tashishini ko‘rsatadi. Natijada ilovali birliklar gapning sintaktik tizimida nisbiy mustaqillikka ega bo‘lsa-da, mazmuniy jihatdan asosiy komponent bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari ingliz tili sintaksisining muhim strukturaviy va kommunikativ vositalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari ilovali birliklarning strukturaviy tuzilishi hamda ular bilan bog‘liq asosiy komponentlarning grammatik va semantik munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiq etilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, ilovali elementlar faqat strukturaviy jihatdan emas,

balki ularni tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro bog'lanish xarakteriga ko'ra ham farqlanadi. Bunday konstruksiyalarda ilovali birliklar asosiy komponentning ma'nosini oddiy tarzda emas, balki uni takroriy aniqlashtirish, konkretlashtirish va izohlash orqali kengaytiradi. Shu sababli ilova konstruksiyalaridagi sintaktik aloqa ko'pincha grammatik bog'lanish bilan bir qatorda semantik yaqinlik asosida ham shakllanadi. A.A. Hill ingliz tilidagi sintaktik strukturalarning funksional tabiatini tahlil qilib, gap tarkibidagi birliklarning o'zaro munosabati kommunikativ ehtiyoj bilan belgilanishini qayd etadi [3.496]. E. Bowman esa og'zaki nutqdagi fragmentar sintaktik birliklarni tadqiq etar ekan, appozitiv va izohlovchi birliklarning mazmuniy aniqlikni ta'minlashdagi rolini alohida ta'kidlaydi.[1.66-67]

Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanishida ot shaklidagi birliklarning appozitiv munosabati muhim o'rin tutadi. Bunday hollarda asosiy komponent ham, ilovali birlik ham ot yoki otlashgan birlik shaklida ifodalanib, ular o'rtasida aniqlovchi-izohlovchi sintaktik munosabat yuzaga keladi:

5. *On January in 1915 Elisabeth saw her daughter. Eleanor.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 111 p.).

6. *Sometimes she takes granddaughter. Mary, with her.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 91 p.).

7. *Ernest has also invited doctor. Member of party.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 99 p.).

8. *Then she has found her friend. Eleanor.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 50 p.).

9. *He has seen a strange man. Robert.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 15 p.).

Mazkur misollarda ilovali birliklar asosiy komponent bilan appozitiv sintaktik aloqa orqali bog'langan. Beshinchi misolda *her daughter* birikmasi umumiy ma'noni bildirsa, *Eleanor* ilovali elementi ushbu ma'noni konkretlashtiradi. Bu yerda sintaktik aloqa appozitsiya hamda semantik aniqlashtirish vositasida ifodalangan. Asosiy komponent va ilovali birlik bir xil sintaktik vazifani bajarib, bitta referentni turlicha nomlash orqali o'zaro bog'lanadi.

Oltinchi misolda *granddaughter* va *Mary* birliklari o'rtasidagi aloqa vergul yordamida ajratilgan appozitiv konstruksiya orqali ifodalangan. Ilovali birlik asosiy komponentning mavhum ma'nosini aniq shaxs nomi bilan to'ldiradi. Bunday hollarda punktuatsion vosita sintaktik aloqaning muhim ifodalovchi omiliga aylanadi.

Yettinchi misolda *doctor* va *member of party* birliklari o'rtasidagi sintaktik aloqa izohlovchi appozitsiya asosida yuzaga kelgan. Ilovali birlik asosiy komponentga qo'shimcha tavsif beradi va shu orqali sintaktik munosabat kengayadi. Bu yerda aloqa nafaqat grammatik moslik, balki mazmuniy yaqinlik orqali ham shakllangan.

Sakkizinchi va to'qqizinchi misollarda esa ilovali birliklar asosiy komponentning noaniq ma'nosini aniqlashtiradi. Masalan, *a strange man* birikmasi noma'lum shaxsni

bildiradi, biroq *Robert* ilovali elementi ushbu noaniqlikni bartaraf etib, referentni konkretlashtiradi. Natijada ilovali birlik tomonidan ifodalanayotgan qo‘shimcha ma’no asosiy komponent mazmunini kengaytiradi va aniqlashtiradi.

Shuningdek, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalar intonatsiya, pauza va punktuatsion vositalar orqali ham ifodalanadi. Nuqta yordamida ifodalangan ilovali birliklar gap tarkibida nisbiy mustaqillikka ega bo‘lsa-da, ular mazmuniy jihatdan asosiy komponent bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Shu sababli ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari grammatik, semantik va kommunikativ vositalarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi.

Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanishi ko‘pincha ilovali birliklarning strukturaviy kengayishi orqali yuzaga chiqadi. Bunday kengayish natijasida asosiy komponent va ilovali birlik o‘rtasidagi grammatik hamda semantik munosabat yanada aniqlashadi va kommunikativ jihatdan kuchayadi. Ayniqsa, ilovali elementlarning aniqlovchilar, izohlovchi birikmalar yoki qo‘shimcha tavsiflovchi komponentlar bilan kengayishi sintaktik aloqalarning murakkabroq shakllarini yuzaga keltiradi. J. Bruner va J. Lucariello nutqning narrativ tashkil etilishi haqida fikr yuritarkan, qo‘shimcha izohlovchi birliklar matndagi axborotni aniqlashtirish va kommunikativ markazni kuchaytirish vazifasini bajarishini qayd etadilar.[2.232] A.A. Hill esa ingliz tilidagi sintaktik birliklarning o‘zaro bog‘lanishi nafaqat grammatik vositalar, balki intonatsion va mazmuniy vositalar yordamida ham ifodalanishini ta’kidlaydi.[3.496]

Quyidagi misollarda ilova konstruksiyalaridagi sintaktik aloqalarning turli ifodalanish usullari kuzatiladi:

10. *Live brought a real fighter. An experienced member of the party, to you.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 19 p.).

11. *He had a joker friend. A real jester of that time.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 78 p.).

12. *Servant has brought letter. News from the other world, to him.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 84 p.).

13. *He has met Margaret. A real queen there.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 14 p.).

14. *They have to celebrate farewell party. Farewell with friends.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 124 p.).

Mazkur misollarda ilovali birliklar asosiy komponent bilan appozitiv sintaktik aloqa orqali bog‘langan bo‘lib, ular strukturaviy jihatdan yolg‘iz yoki kengaygan shaklda ifodalangan. O‘ninchi misolda *a real fighter* asosiy komponent bo‘lsa, *an experienced member of the party* ilovali elementi ushbu ma’noni kengaytiradi va aniqlashtiradi. Bu yerda sintaktik aloqa appozitsiya, vergul hamda semantik izohlash vositasida yuzaga kelgan. Ilovali birlik tarkibidagi *experienced* aniqlovchisi sintaktik munosabatning ekspressivligini kuchaytirib, qo‘shimcha tavsifiy ma’no hosil qilmoqda.

O‘n birinchi misolda *a joker friend* va *a real jester of that time* birliklari o‘rtasidagi aloqa sinonimik mazmun asosida shakllangan. Ilovali birlik asosiy komponent mazmunini takroriy izohlash orqali kuchaytiradi. Bunday hollarda sintaktik aloqa semantik yaqinlik va appozitiv munosabat orqali ifodalanadi.

O‘n ikkinchi misolda *letter* va *news from the other world* birliklari o‘rtasidagi sintaktik aloqa ilovali izohlash vositasida yuzaga kelgan. Bu yerda ilovali birlik asosiy komponentning mazmunini konkretlashtirib, xabarning xarakterini aniqlab beradi. O‘n uchinchi misolda esa *Margaret* komponenti *a real queen there* ilovali birligi orqali tavsiflanadi. Mazkur konstruksiyada sintaktik aloqa metaforik izohlash asosida shakllangan bo‘lib, ilovali birlik ekspressiv-stilistik vazifani ham bajaradi.

Ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalar punktuatsion vositalar yordamida ham ifodalanadi. Nuqta, tire va ikki nuqta kabi vositalar ilovali birlikning asosiy komponentdan intonatsion jihatdan ajralishini ko‘rsatadi:

15. *Chief has been talking for a long time: about friendship and relationship.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 59 p.).

16. *There are shopping centers in this city: shops related with big banks.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 81 p.).

Mazkur misollarda ikki nuqta yordamida ifodalangan sintaktik aloqa ilovali birlikning izohlovchi vazifasini kuchaytiradi. O‘n beshinchi misolda *about friendship and relationship* birikmasi oldingi mazmuni ochib beradi va asosiy fikrni konkretlashtiradi. Ikki nuqta bu yerda sintaktik aloqaning grafik ifodalovchisi sifatida xizmat qilmoqda.

Ba‘zi hollarda ilovali birliklar tarkibidagi aniqlovchilar ham mustaqil kommunikativ yuk tashab, sintaktik aloqaning murakkablashishiga sabab bo‘ladi:

17. *He sent for his sons, the eldest Karl. The youngest Johann.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 132 p.).

Mazkur misolda *his sons* asosiy komponent bo‘lib, *the eldest Karl* va *the youngest Johann* birliklari unga parallel appozitiv aloqa orqali birikkan. Bu yerda sintaktik aloqa nafaqat appozitsiya, balki aniqlovchi komponentlarning semantik mosligi orqali ham yuzaga keladi. Har bir ilovali birlik asosiy komponentning ma’nosini alohida konkretlashtirib, parallel sintaktik bog‘lanish hosil qilmoqda.

Quyidagi misollarda esa ilovali birliklarning ketma-ket va parallel birikish usullari kuzatiladi:

18. *If one had seized fields, vineyards. A village, a care.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 143 p.).

19. *He read to her from his diaries. Hunting stories, experiences from the student days.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 34 p.).

20. *I saw Jean-Jacques, the citizen of Geneva. The greatest among the living.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 62 p.).

21. *Afternoon got Anna visit, a broad-shouldered man with Schlenk-engined step. A childhood friend Willibald, head on a freighter.* (Bellow S. *The Adventure of Augie March*. 68 p.).

22. *He had visited Angela's parents, her friends and comrades. Colleagues from the university.* (Mitchell M. *Gone with the Wind*. 92 p.).

Mazkur misollarda sintaktik aloqalar parallel va ketma-ket appozitiv bog‘lanishlar orqali ifodalangan. Yigirmanchi misolda *Jean-Jacques* komponentiga ikki ilovali birlik parallel ravishda birikib, referentni bosqichma-bosqich tavsiflaydi. Yigirma birinchi misolda esa ilovali birliklarning ketma-ket kengayishi kuzatilib, har bir keyingi birlik oldingi komponent mazmunini to‘ldirib boradi. Bunday konstruksiyalar ingliz tilidagi ilova sintaksisining murakkab kommunikativ va strukturaviy imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan misollar ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanishi murakkab va ko‘p qatlamli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ilovali birliklar bilan asosiy komponentlar o‘rtasidagi sintaktik munosabatlar faqat formal grammatik vositalar orqali emas, balki semantik, kommunikativ va intonatsion omillar yordamida ham shakllanadi. Ayniqsa, appozitiv aloqa ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarining asosiy sintaktik mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, u orqali asosiy komponentning ma‘nosi aniqlashtiriladi, konkretlashtiriladi yoki izohlanadi. Bunday hollarda ilovali birliklar gap tarkibida qo‘shimcha nominativ vosita sifatida qatnashib, bir referentning turli nomlanish shakllarini yuzaga keltiradi.

Tahlil etilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalar bir necha usullar orqali ifodalangan. Birinchi navbatda, asosiy komponent va ilovali birlikning grammatik mosligi muhim rol o‘ynaydi. Ot bilan ot, olmosh bilan ot yoki otlashgan birliklar o‘rtasidagi appozitiv munosabatlar sintaktik bog‘lanishning asosiy strukturaviy modelini tashkil qiladi. Bunday birliklar bir xil sintaktik vazifani bajarishi bilan birga, mazmuniy jihatdan biri ikkinchisini aniqlashtirib keladi. Shu sababli ilovali birliklarda grammatik parallelizm va semantik izohlash birgalikda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, sintaktik aloqalarning yuzaga chiqishida punktuatsion vositalarning ham alohida ahamiyati mavjud. Vergul, tire va ikki nuqta kabi grafik vositalar ilovali birliklarning gap tarkibidagi nisbiy mustaqilligini ifodalash bilan birga, ular va asosiy komponent o‘rtasidagi mazmuniy bog‘liqlikni ham saqlab qoladi. Ayniqsa, vergul yordamida ajratilgan appozitiv birliklar ingliz tilida intonatsion pauza bilan uyg‘un holda qo‘llanib, sintaktik munosabatning kommunikativ xarakterini kuchaytiradi. Ikki nuqta esa ko‘proq izohlovchi yoki sharhlovchi munosabatni ifodalab, keyingi ilovali birlikning oldingi mazmunni ochib berish funksiyasini kuchaytiradi.

Misollar tahlili ilova konstruksiyalarida semantik yaqinlik va sinonimik munosabatlar ham sintaktik aloqa hosil qiluvchi omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda

ilovali birlik asosiy komponentning aynan takroriy yoki sinonimik ifodasi sifatida kelib, mazmunni kuchaytiradi va ekspressivlikni oshiradi. Bunday konstruksiyalarda sintaktik aloqa grammatik vositalardan ko'ra ko'proq semantik uyg'unlik orqali shakllanadi. Natijada ilovali birliklar nafaqat gapning strukturaviy komponenti, balki kommunikativ-pragmatik markazini tashkil qiluvchi vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning parallel va ketma-ket shakllari ham kuzatiladi. Parallel bog'lanishda bir nechta ilovali birlik bitta asosiy komponentga mustaqil ravishda birikadi va uning ma'nosini turli tomondan tavsiflaydi. Ketma-ket bog'lanishda esa bir ilovali birlik ikkinchisini kengaytirib boradi va natijada ko'p bosqichli sintaktik munosabat hosil bo'ladi. Ayniqsa, kengaygan ilovali birliklarda aniqlovchilar, izohlovchi birikmalar va tavsiflovchi komponentlarning ishtiroki sintaktik aloqalarning murakkablashuviga olib keladi.

Shu jihatdan qaralganda, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullari grammatik, semantik, punktuatsion hamda kommunikativ vositalarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadigan murakkab sintaktik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi ilova konstruksiyalari sintaktik birliklar va sintaktik aloqalarning o'ziga xos ifodalanish imkoniyatlariga ega bo'lgan murakkab sintaktik hodisalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida ilovali birliklarning asosiy komponent bilan grammatik, semantik, kommunikativ hamda intonatsion jihatdan uzviy bog'lanishi aniqlandi. Ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalar appozitiv munosabat, grammatik moslik, boshqaruv, semantik yaqinlik, punktuatsion vositalar va intonatsion pauzalar orqali ifodalanishi kuzatildi. Ayniqsa, vergul, ikki nuqta va tire kabi punktuatsion vositalarning ilovali birliklarni ajratish va ularning kommunikativ vazifasini kuchaytirishdagi roli muhim ekanligi dalillandi.

Shuningdek, ilovali birliklarning asosiy komponent ma'nosini aniqlashtirish, konkretlashtirish, izohlash va ekspressiv jihatdan kuchaytirish vazifalarini bajarishi sintaktik aloqalarning nafaqat formal, balki mazmuniy xarakterga ham ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiq etilgan misollar asosida ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarida parallel va ketma-ket bog'lanish shakllari mavjudligi, kengaygan ilovali birliklarda esa sintaktik aloqalarning yanada murakkablashishi aniqlandi.

Tahlillar natijasida ingliz tilidagi ilova konstruksiyalarining strukturaviy va kommunikativ imkoniyatlari keng ekanligi, ular matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlash, axborotni aniqlashtirish hamda nutqning ekspressiv-ta'sirchanligini oshirishda muhim sintaktik vosita sifatida xizmat qilishi asoslandi. Shu bois ilova konstruksiyalarida sintaktik aloqalarning ifodalanish usullarini o'rganish zamonaviy sintaksis, matn lingvistikasi, pragmalingvistika hamda ingliz tilini o'qitish metodikasi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bowman E. The Minor and Fragmentary Sentences of a Corpus of Spoken English // International Journal of American Linguists. Vol. 32, № 3. - Bloomington, 1966. 66-67 p.
2. Bruner J. and Lucariello J. Narrative Recreation of the World // Narratives from the Crib / Ed. by K. Nelson. - Cambridge, London, 1989. P.232.
3. Hill A.A. Introduction to Linguistic Structures. - New York, 1958., 496.
4. Hockett Ch. F. A Course in Modern Linguistics. - New York, 1958., P 648.
5. Mamasoliyev I.U. Hozirgi nemis tilida ilova konstruksiyalarning stilistik-pragmatik funksiyalari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Samarqand, 2022. -137 b.
6. Whitehall H. Structural Essentials of English. - New York, 1956., P. 154.

